




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Özbək dilində ibrani adlari	
20	Rəxşanə BABAZADƏ, Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində məsdər	175
21	Aytəkin ZEYNALOVA, Özbəkistan və naxçıvan mətbəxində folklor elementləri	178
22	Nazmina ABDISAMETOVA, Qorabuloq shevasida qo‘llanadigan idish-tovoq va uy anjomlari nomi	180
23	Mohlaroyim IZZATOVA, Folklor adabiyotining milliy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni	183

2-sho‘ba. O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI

1	Samixon ASHIRBOYEV, 20-yillar matbuoti: Faxri Kamolning singarmonizm talqini 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/IYBD6338	187
2	Abdulhay SOBIROV, O‘zbek areal tilshunosligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NDQE1005	191
3	Shukurjon NORBAYEVA, Xorazm shevalari leksikasida substrat asosli birliklar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/EMTE8289	195
4	Ibrohim DARVISHOV, Namangan qipchoq shevalarida sinonimlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/OKNB2844	200
5	Mo‘minjon TURDIBEKOV, Tojikistonda o‘zbek shevalarining o‘rganilishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/SDAQ1466	205
6	Murodqosim ABDIYEV, Salohiddin RAXMONOV, Chandir shevasining ba’zi grammatik xususiyatlari xususida (Pastdarg‘om tumani Chandir qishlog‘i misolida) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/DHJ12368	209
7	Jo‘ra XUDOYBERDIYEV, Y.D.Polivanov va o‘zbek shevashunosligining ayrim masalalari	212
8	Alisher UBAYDULLAYEV, Qipchoq lahjasiga mansub ayrim qarindoshlik terminlarining lingvistik tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMZR8354	219
9	Navro‘z RAXMONOV, Qipchoq shevalarini o‘rganishning yangi bosqichi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMGU2063	223
10	Zoxira XIDRALIYEVA, Iqon shevasiniung o‘zbek adabiy tili va ayrim o‘zbek shevalariga munosabati	225
11	Baurjan SAYFULLAYEV, O‘zbek va qozoq til kontaktlari natijasida shakllangan toshkent qozoq shevasining lingvistik tahlili	228
12	Zilola TILLABAYEVA, Samarqand viloyati qarluq shevalarida o‘zlashma qatlam va bilingvizm masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/GKIU1258	236
13	Vaziraxon ALIMBEKOVA, Adabiy tildagi lakuna va sheva leksikasi munosabati	239
14	Muattarxon TURDIXO‘JAYEVA,	243

TOJIKISTONDA O'ZBEK SHEVALARINING O'RGANILISHI

THE STUDY OF UZBEK DIALECTS IN TAJIKISTAN

Mo'minjon TURDIBEKOV,

Renessans ta'lim universiteti professori, filologiya fanlari doktori
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/SDAQ1466

Annotation. *This article analyzes the historical-linguistic features of Uzbek dialects formed in the territory of Tajikistan, the factors behind their formation, and the processes of their scientific study. It examines the phonetic, grammatical, and lexical layers of Tajikistani Uzbek dialects, paying special attention to the phenomena that have emerged as a result of bilingualism and language contacts. The article also describes the classification and linguistic characteristics of Tajikistani Uzbek dialects based on the scientific views of scholars such as Yevgeny Dmitriyevich Polivanov, Ivan Ivanovich Zarubin, Konstantin Konstantinovich Yudakhin, Tuli Yuldashev, and Erali Sheraliev.*

Key words: *Uzbek dialects of Tajikistan, dialectology, Karluk dialect, Kipchak dialect, bilingualism, phonetic features, grammatical system, lexical layer, ethnolinguistics, language contacts, regional dialects.*

Tojikiston Respublikasi hududi Markaziy Osiyodagi eng murakkab til makonlardan biri hisoblanadi. Ushbu hududda turkiy va eroniy tillarning ko'p asrlar davom etgan o'zaro munosabati natijasida o'ziga xos hududiy til tizimi shakllangan. Ayniqsa, Tojikiston hududida yashovchi o'zbek aholisi nutqi o'zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, qadimgi turkiy qatlam unsurlarini, ikki tillilik jarayonlarini hamda til aloqalari natijasida yuzaga kelgan murakkab hodisalarni o'zida mujassamlashtirganligi bilan alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur shevalar nafaqat o'zbek shevashunosligi uchun, balki umumiy tilshunoslik, tarixiy tilshunoslik, hududiy tilshunoslik, etnolingvistika hamda ijtimoiy tilshunoslik yo'nalishlari uchun ham muhim ilmiy manba hisoblanadi. Markaziy Osiyo qadimdan turli etnik qatlamlar va til oilalarining o'zaro tutashuv hududi bo'lib kelgan. Turkiy va eroniy xalqlarning uzoq muddat davomida bir hududda yashashi natijasida til aloqalari tabiiy tarixiy jarayon sifatida shakllangan. Sug'd, Hisor, Panjakent, Xo'jand, O'ratepa, Shariston, Qo'rg'ontepa, Qabodiyon, Shahritus, Hisor, Tursunzoda va Vaxsh hududlarida yashovchi o'zbek aholisi nutqi ana shu tarixiy jarayonning mahsuli hisoblanadi. Ushbu hududlarda ikki tillilikning keng tarqalishi natijasida o'zbek shevalarida fonetik, grammatik va lug'aviy o'zgarishlar yuzaga kelgan.

XX asr boshlaridan rus va yevropa tilshunosligida Markaziy Osiyo shevalarini ilmiy asosda o'rganishga qiziqish ortadi. Ayniqsa, Yevgeniy Dmitriyevich Polivanov, Konstantin Konstantinovich Yudaxin, Ivan Ivanovich Zarubin kabi olimlarning tadqiqotlari Tojikiston o'zbek shevalarini ilmiy tavsiflashda muhim ahamiyat kasb etdi. Ular tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida o'zbek shevalarining hududiy tasnifi, tarixiy shakllanishi va boshqa tillar bilan aloqadorligi masalalari keng yoritildi.

Y.D. Polivanov o'zbek shevashunosligining asoschilaridan biri sifatida Markaziy Osiyo hududidagi o'zbek shevalarini ilmiy jihatdan tavsiflagan ilk olimlardan hisoblanadi. U Xo'jand, Samarqand, Buxoro va unga tutash hududlarda tarqalgan o'zbek shevalarini qiyosiy jihatdan o'rganib, ularning tarixiy ildizlarini aniqlashga harakat qilgan. Polivanovning fikricha, Tojikiston hududidagi o'zbek shevalari qarluq lahjasiga yaqin bo'lsa-da, uzoq davom etgan tojikcha nutq muhiti ta'sirida o'ziga xos aralash xususiyatlarni hosil qilgan. Olim bu holatni "til qatlamlarining qo'shma taraqqiyoti" sifatida izohlaydi. Polivanov ayniqsa ikki tillilik masalasiga katta e'tibor qaratgan. Uning ta'kidlashicha, ikki xalqning uzoq muddat davomida yonma-yon yashashi



natijasida nafaqat lug‘aviy birliklar, balki grammatik shakllar va tovush tizimlari ham o‘zaro ta’sirga uchraydi. U Xo‘jand shevalarida uchraydigan cho‘ziq unlilarni, tovush qisqarishlarini hamda ayrim sintaktik qurilmalarni tojik tili ta’siri bilan bog‘laydi.

I.I. Zarubin ham Markaziy Osiyo xalqlari tillarini o‘rganishda katta ilmiy meros qoldirgan olimlardan biridir. Uning tadqiqotlari ayniqsa Pomir hududi va Tojikistonning shimoliy viloyatlaridagi til jarayonlarini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Zarubin o‘z tadqiqotlarida til va etnik tarix o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni alohida ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, Tojikiston hududidagi o‘zbek shevalari faqat til hodisasi emas, balki xalqning tarixiy ko‘chishlari, iqtisodiy munosabatlari va madaniy aloqalarining mahsulidir. Zarubin ayrim o‘zbek shevalarida saqlanib qolgan qadimgi turkiy unsurlarni alohida qayd etadi. Masalan, “ko‘ynek”, “qo‘ra”, “charx”, “tiyirmon”, “yorti” kabi birliklarning qadimgi turkiy ildizga egaligini ko‘rsatib, ular tarixiy til qatlamining davomiyligini namoyon qilishini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, Tojikiston hududidagi ayrim chekka shevalar qadimgi turkiy tilning tirik qoldiqlari sifatida muhim ilmiy qiymatga ega.

K.K. Yudaxin esa o‘zbek va qirg‘iz tillari lug‘at tarkibini tadqiq etish orqali Markaziy Osiyodagi til aloqalarini chuqur o‘rgangan olimlardan biri sanaladi. Uning tadqiqotlarida o‘zbek va tojik tillari o‘rtasidagi lug‘aviy almashinuv masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Yudaxinning fikricha, til aloqalari natijasida boshqa tildan kirgan birliklar oddiy o‘zlashma sifatida emas, balki yangi ma’no va vazifa kasb etgan holda yashaydi.

Tojikiston o‘zbek shevalarining shakllanishida tarixiy omillar muhim o‘rin tutadi. Qadimda Sug‘d vohasi va Hisor vodiysi Buyuk ipak yo‘lining yirik madaniy markazlaridan biri bo‘lgan. Savdo, hunarmandchilik va dehqonchilikning rivojlanishi turli xalqlar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirgan. Natijada tillar o‘rtasida tabiiy yaqinlashuv jarayoni yuzaga kelgan. Tojikiston o‘zbek shevalari mahalliy olimlar tomonidan o‘rganish XX asrning oltmishinchi yillariga to‘g‘ri keladi. To‘li Yo‘ldoshev Janubiy Tojikiston o‘zbek shevalarini kompleks tarzda o‘rganib, ularni lingvistik belgilari asosida tasniflaydi. Olimning fikricha, Tojikiston o‘zbek shevalari genetik jihatdan ikki asosiy qatlamga, qarluq va qipchoq lahjalariga mansub bo‘lsa-da, uzoq muddatli fors tojik tilining ta’siri, ko‘p hollarda ikki tillilikni vujudga keltirgan. To‘li Yo‘ldoshev qarluq lahjasi shevalarini quyidagi guruhlariga ajratadi:

1. Chinor-Yovon-Ko‘lob guruhi;
2. Ispisor-G‘o‘lakandoz guruhi;
3. Itorchi-Chorbog‘ guruhi;
4. Lakkon-Niyozbek-Farmonqo‘rg‘on guruhi;
5. Oshoba guruhi.

Qipchoq lahjasi shevalarini esa;

1. Qoramozor-Cholota-Qayirma-Ko‘lob;
2. Qirqduq-Uyas-Hashtiyak-Mo‘g‘ulon;
3. Laqay guruhlariga ajratadi.

To‘li Yo‘ldoshev qarluq va qipchoq lahjalarini guruhlariga ajratganda, markaziy joylarni olgan bo‘lib, aslida qarluq va qipchoq lahjalari vakillari Tojikistonning barcha hududlarida istiqomat qilishadi. Shunday bo‘lsada, mazkur tasnifning metodologik ahamiyati shundaki, unda shevalarning nafaqat geografik joylashuvi, balki fonetik va morfologik indikatorlari ham asos qilib olingan.

Shimoliy Tojikiston o‘zbek shevalari tadqiqida dialektolog olim Erali Sheraliyevning alohida o‘rni bor. Olim “Shimoliy Tojikiston o‘zbek shevalarining leksikasi” mavzusida ilmiy ish yoqalaydi. Erali Sheraliyev bu ilmiy ishida asosan qipchoq tip lahjalari tasnifiga urg‘u beradi. Olimning turmush o‘rtog‘i Dilorom Abdullayev “O‘zbek tili Oshoba shevasining fonetik xususiyatlari” mavzusida, farzandlari Shavkat Sheraliyev esa, “Sharqiy Xo‘jand o‘zbek shevalarining grammatik xususiyatlari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Yuqorgilardan ham ko'rinib turibdiki, Shimoliy Tojikiston o'zbek shevalarining fonetik, lekdsik, grammatik tomonlari atroflicha o'rganilgan. Shuningdek, E.Sheraliyev va D.Abdullayevlar tomonidan Shimoliy Tojikiston shevalarining izohli lug'ati tuzilib, 2020-yil nashr qilingan.

Aholining aralash yashashi ham til munosabatlarini kuchaytirgan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayrim hududlarda o'zbek va tojik aholisi bir qishloq yoki mahallada istiqomat qilgan. Bunday muhitda ikki tillilik oddiy ijtimoiy ehtiyojga aylangan. Natijada bolalar kichik yoshdan ikki tilni birgalikda o'zlashtirgan.

Tojikiston o'zbek shevalarining tovush tizimi o'ziga xos murakkablikka ega. Mazkur shevalarda tovush tushishi, tovush almashishi va tovush qisqarishi hodisalari faol uchraydi. "Kelibdi" so'zining "kebti", "olib kel" birikmasining "apke", "borib kel" shaklining "bopke" tarzida talaffuz qilinishi nutq tejamkorligi tamoyili bilan bog'liq. Bunday hodisalar og'zaki nutqning tabiiy taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan.

Oshoba shevasida uchraydigan tovush o'rin almashishi hodisasi ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. "Tuproq"ning "turpoq", "kiprik"ning "kiprik", "yulduz"ning "yudluz" tarzida qo'llanishi qadimgi fonetik qatlam unsurlarining saqlanib qolganidan dalolat beradi. Bunday shakllar tarixiy tilshunoslik uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi. Shevalarda cho'ziq unilarning faol qo'llanishi ham diqqatga sazovordir. "No:n", "bo:zor", "jo:n", "mo:h", "to:n" kabi birliklarda unilar cho'ziq talaffuz qilinadi. Bu hodisa ko'proq tojik tili ta'siri natijasida yuzaga kelgan bo'lib, ayrim hollarda ma'no farqlash vazifasini ham bajaradi.

Tojikiston o'zbek shevalarining grammatik tizimi ham o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Ayrim grammatik qo'shimchalar qisqarib, ixcham shakllarni hosil qilgan. Qaratqich kelishigi shaklining "bolaning" emas, "balanin", "otaning" emas, "atanin" tarzida qo'llanishi grammatik shakllarning soddalashuv jarayonini ko'rsatadi.

Fe'l tizimida davomiylik ma'nosini ifodalovchi shakllarning qisqarishi Oshoba tip shevalarida kuzatiladi. "Kelayapti" shaklining "kevotti", "ishlayapti" shaklining "ishlovotti", "yashayapti" shaklining "yashovotti" tarzida qo'llanishi grammatik vositalarning tahliliy shaklga o'tishga moyilligini ko'rsatadi.

Sintaktik qurilishda ham tojik tilining sezilarli ta'siri mavjud. "Man kitob doram", "Biz bozor raftem", "Tu kimo didi?" kabi gaplarda tojikcha gap qurilishiga xos shakllar kuzatiladi. Bu hol ikki tillilik muhiti natijasida shakllangan sintaktik moslashuv hodisasi sifatida baholanadi.

Lug'aviy tarkib Tojikiston o'zbek shevalarining eng boy qatlamlaridan biridir. Tojik tilidan kirgan ko'plab birliklar kundalik nutqda faol qo'llanadi. "Beshik" o'rnida "gevare", "gavara", "deraza" o'rnida "daricha", "darcha", "xona" o'rnida "otaq", "jataq", "qopqoq" o'rnida "sarpo'sh" kabi birliklar ishlatiladi. Ushbu birliklar vaqt o'tishi bilan mahalliy nutq tarkibiga singib ketgan.

Qurilish va uy-ro'zg'or bilan bog'liq atamalar ham alohida qatlamni tashkil etadi. "Andava", "suvaq", "mehrob", "tokcha", "takcha", "hujra", "boloxona", "gummaz" kabi birliklar xalqning tarixiy me'morchilik madaniyatini aks ettiradi. Bu birliklar etnomadaniy xotiraning til orqali saqlanishini ko'rsatadi.

Dehqonchilik bilan bog'liq birliklar ham qadimiy qatlam sifatida saqlangan. "Jo'yak", "ariq", "xirman", "xirmon", "g'aram", "ketman", "poliz", "teva" kabi so'zlar xalqning iqtisodiy turmushi bilan bog'liq tarixiy tajribasini ifodalaydi.

Etnomadaniy birliklar Tojikiston o'zbek shevalarida muhim o'rin tutadi. "Yaktak", "chopon", "salla", "mahsi", "kavush", "do'ppi", "sumalak", "halim", "tandir" kabi birliklar xalqning milliy-madaniy o'zligini ifodalovchi belgilar hisoblanadi.

Ikki tillilik Tojikiston o'zbeklari orasida keng tarqalgan ijtimoiy hodisadir. O'zbek tili asosan oilaviy va mahalliy muloqot vositasi sifatida yashab kelayotgan bo'lsa, tojik tili davlat, ta'lim va rasmiy munosabatlarda faol qo'llanadi. Natijada kundalik nutqda ikki til unsurlarining aralashuvi kuzatiladi.

Bugungi kunda Tojikiston o'zbek shevalarini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda shevalarni raqamli shaklda saqlash, ovoz yozuvlarini yig'ish, hududiy til xaritalarini yaratish hamda sheva matnlari jamg'armasini tuzish ishlari olib borilmoqda. Bu esa shevalarning keyingi avlodlar uchun saqlanishiga xizmat qiladi.

Tojikiston o'zbek shevalari o'zbek tilining tarixiy taraqqiyotini o'zida aks ettiruvchi muhim hududiy qatlamdir. Mazkur shevalarda qadimgi turkiy unsurlar, ikki tillilik natijasida yuzaga kelgan til hodisalari va hududiy xususiyatlar murakkab uyg'unlik hosil qilgan. Ushbu shevalar tovush tizimi, grammatik qurilishi, sintaktik xususiyatlari va lug'aviy tarkibi jihatidan katta ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, o'zbek tilining tarixiy hamda zamonaviy taraqqiyotini o'rganishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Евгений Дмитриевич Поливанов. Ўзбек диалектологиясига оид тадқиқотлар. – М., 1933.
2. Иван Иванович Зарубин. Материали по узбекским говорам Средней Азии. – Л., 1928.
3. Константин Константинович Юдахин. Киргизско-русский словарь. – М., 1965.
4. Тўли Йўлдошев. Жанубий Тожикистон ўзбек шевалари таснифи бўйича тадқиқотлар. – Душанбе, 1972.
5. Эрали Шералиев. Шимолий Тожикистон ўзбек шеваларининг лексикаси. – Тошкент, 1974.
6. Дилором Абдуллаева. Ўзбек тили Ошоба шевасининг фонетик хусусиятлари. – Хўжанд, 1999.
7. Шавкат Шералиев. Шарқий Хўжанд ўзбек шеваларининг грамматик хусусиятлари. – Хўжанд, 2002.
8. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Фан, 1978.
9. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1971.
10. Шералиев Э., Абдуллаева Д. Шимолий Тожикистон ўзбек шеваларининг изоҳли луғати. – Хўжанд, Нури маърифат, 2021.

